



TARIXIY ASARLARDAGI ETEKIT SO'ZLARINING QO'LLANILISHI VA O'ZIGA XOSLIGI.

Ergasheva Gulnoz Xaydarovna

Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tarixiy asarlardagi etekit so'zlarning qo'llanilishi, tarixiy mavzulardagi o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarixiy mavzular, mardlik, jasurlik, ma'naviy, xushomad, iltifot, tarbiya, mas'uliyat.

Tarixiy asarlarda asosan podshoh va mansabdor ayonlarga xushomad, iltifot, ularning tole'yini ko'klarga ko'tarish kabi o'rinlar bisyor ekanligiga guvoh bo'ldik. Shu bilan birga tarixiy asarlarda jang va g'alaba motivlari ko'rsatilgan lavhalarning ko'proq uchrashini hisobga olsak, ulardagi iltifotlarda kuch-qudrat, mardlik, jasurlik xususiyatlari ulug'langan bo'ladi. Yana bir jihat shuki, zamonaviy mavzulardagi asarlardan ko'ra tarixiy mavzular yoritilgan badiiy asarlarda o'ziga xos iltifot, mulozamat namunalari ko'proq uchraydi[1].

P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida ham muloqotning turi hisoblangan iltifotning bir qancha namunalarini ko'rishimiz mumkin:

- Bilagingizda kuch ko'p amirzodam! Sherpanjasiz. Podshoh hazratlari sizni Bobur deb ataganlari bejiz emas. Bobur arabcha sher demakdir![2].

A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ham iltifotning eng noyob namunalariga duch kelamiz. Asar tengsiz odob-axloq, o'zbekona odob va madaniyatni o'zida aks ettiradi. Dastlab Yusufbek hoji va Otabek obrazini tahlil etsak. Yusufbek hojidagi salobat va tafakkur qudrati, Otabekdagi vijdon va yigitlik haqidagi mustahkam tasavvur Qodiriy qahramonlarining aqlu zakosi, mulohazakorligini ko'rsatadi. O'zbekoyim o'z xohishi bilan Otabekka Zaynabni unashib qaytadi. Otabek bundan bexabar bo'lsada, bir dilxiralikni sezib turgandek. Romanning bu haqdagi voqeasi bayonida shunday deyiladi:

"...Anchagina so'zsiz ulturgandan so'ng hoji muloyimona so'z ochdi:

-O'g'lim, hali san eshitdingmi, yo'qmi, haytovur, biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...

Otabek, ma'lumki, ularning «qilib qo'yg'an yoki qilmoqchi bo'lg'an ishlarini» albatta bilar edi. Shundoq ham bo'lsa bilmaganga solindi:

-Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari albatta noma'qul bo'lmas, -dedi."[3].

Farzand javobidagi mantiqiy qudrat va ota-onaga nisbatan tavoze' shu qadar kuchli ediki, ota bundan qattiq ta'sirlanadi. Hoji O'zbek oyimdagi biroz kaltabinlik nuqsini bilsada, aybni boricha unga to'nkab qo'ymaydi, «biz» deb ko'rsatadi. Endi bu og'ir masalani uzil-kesil hal qiladigan qat'iy tamoyil bor. Bu ham bo'lsa, ushbu oila a'zolariga xos bo'lgan lafzga sadoqat tuyg'usidir. Ayni shu parchaning o'zida noyob o'zbekona qadriyatlar – farzandning ota-onaga ixtiyoriga keskin qarshi chiqmasligi, ota hurmati, farzand e'zosi, oilaboshining ayoli



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

izzatini oshkora to'kmasligi, ayniqsa, lafzga vafodorlik fazilati mahorat bilan ochib beriladi[4].

O'quv izohli lug'atlarda nutqiy etiketlar talqinini ko'rib o'tamiz:

OILA ([a. bola-chaqa, xonadon, urug', avlod] 1.Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon[5].

OILA – er-xotin ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai[6].

Oila “jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai” ekanligi “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”ning XIV bob 63- moddasida aniq ko'rsatib qo'yilgan: “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega”[7].

Aynan shuning uchun ham mustaqilik davrida oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagi ma'naviy o'zgarishlar bilan uyg'un holda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi sifatida doimiy e'tibor berib kelinmoqda. Ma'lumki, 1996-yildan yurtimizda har qaysi yilga aniq bir nom berib, shu asosda maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish yaxshi an'anaga aylanib qoldi. 1998-yilni “Oila yili” deb e'lon qilinganligining o'ziyoq mamlakatimizda davlatning eng muhim tayanchiga ne chog'li katta e'tibor berilayotganligini ko'rsatadi. Xo'sh, oila shu qadar muqaddas, shu qadar e'tiborga molik ekan, uni mustahkamlash, yanada takomillashtirish uchun nimalar qilishimiz kerak? degan tabiiy savol tug'iladi, albatta. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli asarida yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak emas, subyektiv hodisa ham emas, balki tub tarixi asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zarurat ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur asarda yaqin yillarda mamlakatimizda yangi ma'naviy makonni va xalqimizning yangi tafakkurini shakllantirish bo'yicha ishlar samarasini yuksak darajaga ko'tarish uchun aniq vazifalarni belgilab berilar ekan, “oilaviy qadriyatlarga bepisand va 9 yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsiz qarash kabi illatlarga barham berishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish”[8] ga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonliligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. “Albatta, farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga etkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin...”[9]. Shuning uchun ham mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” nomli asarida bu dolzarb masalaga qayta-qayta murojaat qilib, quyidagilarni alohida ta'kidlagan:



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

"Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish ayni muddao bo'lur edi. Bu haqda gapirganda, men mumtoz yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari qahramonlarining o'zaro muomala va muloqotlari, ularning hatto kichik farozandlarini ham "siz"lab gapirishi misolida ota-bobolarimizning oila ma'naviyatiga qanchalik katta berganiga ishonch hosil qilaman..."[10]. Yuqoridagilardan ma'lum bo'lmoqdaki, "inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg'ular, ilk hayotiy tajriba va tasavvurlar, eng avvalo, oila bag'rida shakllanadi. Oila – haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhiti[11]. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "...aynan oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlar va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi... Odamzod uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, etakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi avvalo uning tug'ma tabiati, shu bilan birga, oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi..."[12].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Тоирова Г. Фатика ва фатик мулоқот турлари//ЎЗМУ хабарлари –Тошкент, 2016, 2-сон –Б.291-295.
- 2.Қодиров П. Юлдузли тунлар. Т.: Шарқ, 2016. 36-б.
- 3.Қодирий А. Ўткан кунлар. Т.: Шарқ, 2004.
- 4.Турдиева Ҳ. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи: филол. фан. PhD дисс. автореф. – Тошкент, 2020.
- 5.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. Учинчи жилд, 2007.
- 6.Маънавият.Асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2010.
- 7.Ўзбекистон Республикаси конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
- 8.Мирзиёев Ш, Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2022. 271 б.
- 9.Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 56-57-б.
- 10.Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 56-57-б.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

11. Маънавият. Асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2010.

12. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. 52-53-б.